

---

## **DAVLAT SIYOSATIDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIGA E'TIBOR**

**Jo‘rayeva Dilnoza**

*Nizomiy nomidagi*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Musiqa ta’limi va san’at” yo‘nalishi*

*I-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan yo‘nalishlar va maqsadlar yoritildi, mazkur farmoyishlar asosida olib borilayotgan islohotlar xususida fikr-mulohazalar bayon etildi.

**Kalit so‘zlar:** Madaniyat, san’at, musiqa, yo‘nalish, maqsad, strategiya, islohot, chora-tadbir, davlat siyosati.

**Аннотация:** В статье рассмотрены направления и цели развития сферы культуры и искусства, определённые Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым в Стратегии действий, Стратегии развития, а также в Стратегии «Узбекистан – 2030». Представлены рассуждения о реформах, реализуемых на основе указанных документов.

**Ключевые слова:** Культура, искусство, музыка, направление, цель, стратегия, реформа, мероприятие, государственная политика.

Hozirgi kunda barcha yo‘nalishlardagi kabi madaniyat va san’at sohasida ham katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida soha rivojiga qaratilgan islohotlar o‘z aksini topdi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha

ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida barcha yo‘nalishlar qamrab olindi. Xususan, to‘rtinchi yo‘nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifasi belgilandi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur asosida madaniyat sohasi rivojiga qaratilgan islohotlar quyidagi maqsadlarda keng yoritildi.

**76-maqsad:** Madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalarini va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Madaniyat va san’at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

Teatr san’atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta’minlash.

O‘zbek sirk san’atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o‘tkazishni joriy etish.

O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

78-maqсад: Milliy kino san'atini rivojlantirish.

Kino san'atini jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotida, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategik manba sifatida shakllantirish.

Kino sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarini mamlakatga jalb qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish.

Kino sanoatini iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida rivojlantirish, zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratuzilmani yaratish.

Kinematografiya sohasida kadrlar tayyorlash, kino ijodkorlari va texnik xodimlari malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish.

Milliy seriallar ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag'batlantirish, animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish.

Sohada mualliflik huquqining kafolatli himoya qilinishini ta'minlash, kinoprokat tizimini rivojlantirish va milliy filmlarni jahon kino bozorlariga olib chiqish.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan maqsadlar kelajagimiz istiqboli uchun muhim o'rinn tutadi.

Xususan, 40-maqсад: Zamonaviy teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g'oyaviy saviyaga ega sahma asarlarini yaratish doirasida 40 ta teatr binolarini ta'mirlash va jihozlash, 6 ta yangi teatr binolarini qurish, davlat teatrlariga tomoshabinlarning yillik tashrifini 5 millionga yetkazish, 2 ta yangi qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etish, zamonaviy teatr va sirk san'ati yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish.

41-maqсад: O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish doirasida maqom, baxshichilik, raqs va teatr

yo‘nalishlarida kamida 10 ta xalqaro festival va anjumanlar o‘tkazish, sohada ta’lim berishga kamida 20 nafar yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalg qilish.

43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san‘at yo‘nalishlarini rivojlantirish doirasida 2024 — 2030-yillarda 432 ta ta’mirtalab madaniyat markazlarida xususiy sektorni jalg qilgan holda qurilish-ta’mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish, 13 ta bolalar musiqa va san‘at maktablarini jihozlash, to‘g‘araklar sonini 7 mingtaga yetkazish kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minalash, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu kabi islohotlar xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi - O‘zbekiston, 2019.
2. Lex.uz – O‘zbekiston qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni